

Bani Isroilning Kufroni ne'mati



16:13 / 24.10.2022 1938

Lekin uzoq davom etgan qullik Bani Isroilga o'z ta'sirini o'tkazgan, ularning xulq-atvori va hayotdan zavq olish hissini buzgan edi.

Bani Isroil bola tabiatli bo'lib qolgandi. Ular hech bir narsada uzoq vaqt tura olmasdilar. Besabr, beqaror kishilarga aylanishgan edi. Shukri kam, nolishi ko'p, noz-zerikishi xo'b bu qavm ta'qiqlangan narsani xush ko'rib, berilgan ne'matlarni yoqtirmasdi.

Hali hech qancha o'tmasdan turib ular yana nolishga o'tdilar: Ey Muso, bir xil taom jonimizga tegdi. Go'shtu holvalardan zerikdik. Yerda o'sadigan ko'k-sabzavotlardan yegimiz kelyapti.

- «Ey Muso, bir xil taomga hech qanoat qila olmayapmiz. Parvardigoringa duo qil, bizga yerda unib-o'sadigan sabzavotlardan, bodring, sarimsoq, mosh, piyozga o'xshagan o'simliklardan chiqarib bersin».

Muso ularning bu g'alati so'rovlaridan taajjubga tushib ham inkor, ham hayrat,

ham tanbeh ohangida dedi;

- «Yaxshi narsani past narsaga almashtirishni istaysizlarmi?»

- Qush go'shtlari, holvalar kabi inson qo'li tegmagan noz-ne'matlarni tashlab ko'k-sabzavotlarni orzu qilasizlarmi?

- Shohlar taomini dehqonlar yeguligiga almashasizlarmi?

- Eh sizlarda ta'm bilishdagi zavq buzilgan-ku?!

- Eh muncha yomon narsani ixtiyor qilasizlar!

Lekin Bani Isroil ko'kat va sabzavot talabida turib olib qayta-qayta so'rayvergach, Muso alayhissalom ularga dedi:

- Xohlagan qishloq va shahringizdan aytayotgan narsalaringizni topasiz.

«Qaysi shaharga tushsangizlar so'ragan narsalaringiz turibdi-ku?».

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy
Tarjimon Anvar Ahmad